МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6/1 2024

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

2024

6/1-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

МАЗМУН

ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ

Xodjayeva D.Sh. Epideyktik nutqiy janr turlari va tasnifi masalalari 4
Хусаинова Л.Ю. Талабаларда тил ўрганиш қобилиятларини ривожлантиришнинг афзалликлари 7
Matkarimova A. Nutqiy etiket jarayonlarining ijtimoiy asoslari 12
Akbarova M.Sh. G'ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik aktuallashuvi 16
Suleymanova S.A. Hozirgi o'zbek qissalarida janrlar va shakllar rang-barangligi 18
Oripova K.E. Badiiy nutq: uning janr va shakllari 22
Kenjaeva F.T. Ichki ishlar tizimi terminologiyasida soha professional leksikasining namoyon bo'lishi 26
Shamirzayeva Z. X. Sport yo'nalishi talabalarida ingliz tilida terminologik leksikani rivojlantirishning ahamiyati 29
Нургизарова З.Б. Занятия русского языка с применением информацонных технологии 33
Самамбетова Ф.Т. Лингвокультурный анализ концепта "здоровье" в русском и каракалпакском языках 35
Бекмуратова У.А. Инновационные технологии в преподавании русского языка: учим студента или преподавателя? 38
Кайпанова Э.А. Лингвокультурология и лингвокультурологический подход к обучению русскому языку как иностранному 42
Kadirov B., Kulmamatov O. Latifa, anecdote, and chiste as xenomorphic genres 46
Abdujabborova Sh.A. Paradigmatic and syntagmatic features of english and uzbek riddles 57
Musurmankulova M. N. Comparative study of modern construction terminology of the russian and english languages 63
Burkhanova D.I. Kinship terms and cognitive linguistics 66
Musurmankulova M.N. Position of terms in different spheres 69

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Pirniyazov I.K. Bilimlendiriwdiń sapasin arttiriwda xaliqaraliq tájiriybelerdiń orni hám áhmiyeti (Singapur tájiriybesi misalinda) 72
Чинқулова Г.Б. Педагогик технологиялардан ўқув машғулотида мақсадли фойдаланиш 76
Kamolova G. Interfaol darslarning ta'lim sifatiga ta'siri 80
Negmatova A. O'rganishning pedagogik va psixologik jihatlari: asosiy tushunchalar va ularning ilmiy-pedagogik tahlili 84
Saparov K.A., Sanayeva M.I. Biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalardan foydalanishning didaktik va metodik asoslari 90
Raximova N.Yu. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xalqaro baholash mezonlaridan foydalanishningahamiyati 97
Asallayev O'.X. Zoologiya fanidan innovatsion elektron darsliklar yaratish va joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish 100
Rayimberdiyeva Z.R. «Tinish belgilarining grafik tizimda tutgan o'rni» mavzusini blum taksonomiyasi asosida o'qitish texnologiyasi 105
Ismoilova N.I. Mantiqiy topshiriqlarning o'qituvchilar kasbiy rivojlanishidagi ta'siri 110
Shernafasova H.R., Ro'zmetova F.A. Pedagogik mahoratni o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni 115

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BAHOLASH MEZONLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Raximova N.Yu.
ChDPU, o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: baholash, monitoring, xalqaro baholash, PIZA, PIRLS, TIMSS, TALIS.
Ключевые слова: оценка, мониторинг, международная оценка, PIZA, PIRLS, TIMSS, TALIS.
Key words: assessment, monitoring, international assessment, PIZA, PIRLS, TIMSS, TALIS.

РЕЗЮМЕ
Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xalqaro baholash mezonlaridan foydalanishning ahamiyati keltirilgan. O'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dasturdagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini belgilaydi. Xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligi batafsil berilgan.

РЕЗЮМЕ
В данной статье представлена важность использования международных критериев оценки в учреждениях общего среднего образования. Тест международной программы оценки учебных достижений учащихся определяет знания школьников по странам мира и умение применять их на практике. Детализировано, что в области должен быть задействован передовой опыт, направленный на повышение качества образования путем оценки и мониторинга развития областей образования и науки, как в зарубежных странах.

SUMMARY
This article presents the importance of using international evaluation criteria in institutions of general secondary education. The test of the international student assessment program determines the knowledge of students in the countries of the world and the ability to apply them in practice. It is detailed that best practices should be used in the region, aimed at improving the quality of education by evaluating and monitoring the development of areas of education and science, as in foreign countries.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim va tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhimdir.Talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta'limni tashkil etish tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoda ta'lim sifati, saviyasi va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash. PISA o'quvchilarni ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib, undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi. Dasturning asosiy maqsadi - 15 yoshli o'quvchilar ta'lim dargohida olayotgan bilim va tajribalarini ijtimoiy munosabatlarda va inson faoliyatida uchraydigan turli xil hayotiy vazifalarni yechishda qanchalik foydalana olish qobiliyatini baholashdir. Ushbu sinov har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi. Testda faqat 15 yoshdagi o'smirlar ishtirok etadi. Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda: o'qish, matematika va ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi. Birgina 2015 yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim

sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqeini ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi. Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang'ich 4- sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash uchun PIRLS - boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash TIMSS - ham jahon mamlakatlari ta'lim tizimida keng tadbiq etilmoqda.

TIMSS dasturi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievements) tomonidan tashkil etilgan bo'lib, ushbu tadqiqot 4 va 8 sinf o'quvchilari orasida matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha ta'limning sifati, darajasi, fanga bo'lgan munosabati, qiziqishini aniqlaydi. The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun har 4 yilda bir marotaba olib boriladi. Ushbu tadqiqot PIRLS tadqiqotiga o'xshab, o'quvchilar, maktab ma'muriyati va o'qituvchilari orasida qo'shimcha so'rovnomalar o'tkazadi va fan sohasida to'sqinlik qilayotgan asosiy omillarni aniqlaydi. Bu esa, o'sha mamlakatda ishlab chiqilgan ta'lim standartlarini va ta'lim samaradorligini boshqa davlatlar bilan solishtirib ko'rish imkonini beradi.

2015 yil TIMSS tadqiqotlari natijalariga ko'ra AQSh, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan. Shuni e'tirof etish lozimki, ayni shu davlatlarda yuqori texnogiyalarni o'zlashtirish, sanoatlashtirish va yuksak darajadagi taraqqiyot erishish maqsadida aniq fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilib, unda o'quvchilar tug'ma iste'dod va qobiliyatlardan ko'ra o'z ustida doimiy ishlash hamda aniq fanlarni o'qitishda guruh yoki sinfdagi o'quvchilar sonining 16 nafardan oshmasligi belgilangan. Bunday tajriba AQShda ham mavjud bo'lib, 1999 yildan boshlab bitta o'qituvchi 40 minutlik dars mashg'uloti davomida 16 ta bolaga bilim va tarbiya bera olish imkoniyatiga ega ekanligii inobatga olgan holda prezident qarori bilan ta'lim muassasalaridagi guruhlarda o'quvchilar soni 16 nafar etib belgilangan. PISAda o'qish savodxonligini baholash vositalari keskin o'zgargan. Bu borada Rossiya natijalari ham 2018 yilda bir oz yomonlashganini ko'rdik.

Shuningdek, o'quvchilarning test sinovlarini baholash uchun yangi baholash formati (kompyuter platformasi) joriy qilinibgina qolmay, balki o'quvchilarga butunlay boshqa matnlar taklif etildi: ko'p o'lchovli matnlar, ziddiyatlarni aniqlash, nuqtai nazarni yoki manbalar sifatini aniqlash kerak bo'lgan matnlar. Shuning uchun bu yo'nalishda o'zbekistonlik maktab o'quvchilarining natijalarida uncha katta siljish bo'lmasligi mumkin. PISA testlari 5 ta yo'nalish boyicha otkaziladi: Oqish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo'nalishlari. Testlarda asosiy etibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar boyicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi! Bu testlarda o'quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo'yicha o'rgangan bilimlarini sinovdan o'tkazish nazarda tutilmagan! PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi: a) Bir javobli testlar; b) Bir nechta javobli testlar; c) Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar; d) Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzivchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi). Bundan tashqari testlar bilan bir vaqtda o'quvchilardan anketalar ham olish nazarda tutilgan. PISA: Asosiy yo'nalishlar O'qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan

ma‘lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko‘nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o‘qigan ma‘lumotlaridan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma‘no kasb etadi. Bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya,xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi. Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o‘zi yashayotgan olamdagi o‘rnini bilishi, matematik jarayonlarni to‘g‘ri va to‘liq asoslay olishini tekshiradi. Shaxsning matematikadan yaratuvchan, qiziquvchan va fikrlovchi insonning hozirgi va kelajakdagi matematik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishini ta‘minlash bu bo‘limning asosiy maqsadidir. Bu bo‘limdagi savodxonlik terminidan bu bo‘lim maqsadi odatda maktab dasturida beriladigan bilimlarni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash emasligni ko‘rsatish uchun foydalanilgan. Asosiy e‘tibor matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash va intiutiv qaror qabul qilish talab qilinadigan turli uslublaridan qo‘llagan holda foydalana olish nazarda tutiladi. Lekin bu turdagi savollarga javob berishda maktab dasturida beriladigan bilim va ko‘nikmalar zarur bo‘lishi mumkin. Bu yo‘nalish sinovlarida odatda hayotning turli sohalarida (tibbiyot, turar joy, sport va h.k.) duch kelinishi mumkin bo‘lgan matematikaga oid vaziyatlar taklif qilinadi. Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi: Hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi. Bu xulosalar atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, shunga ko‘ra kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish bu bo‘limning asosiy maqsadidir. Umuman olganda mamlakatimizda aynan mana shunday xalqaro dasturlarning ta’lim tizimini baholash va monitoring qilishdagi ishtiroki mavjud emasligi yoki o‘quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning milliy dasturning yaratilmaganligi, hududlar kesimida yoshlar tomonidan u yoki bu fanni o‘zlashtirish darajasining sifati va sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab borish va tegishli islohotlar o‘tkazish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda.Shuningdek, boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi o‘qitish darajasining islohotlar tempidan ortda qolayotganligi yaqin kelajakda malakali kadrlar tanqisligini keltirib chiqaradi. Shuni inobatga olgan holda quyidagi takliflarni amalga oshirish joiz deb hisoblaymiz:

1. Xalqaro ta’lim sifatini baholash dasturlarida O‘zbekistonning ishtiroki masalasini atroflicha o‘rganib chiqish va ushbu dasturlarda ishtirokini ta’minlash; 2. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda o‘quvchi yoshlar bilimlari darajasini baholash yoki monitoring qilishning milliy dasturini yaratish;

3. Ilm-fan yutuqlarining eng ilg‘or natijalari va adabiyotlarning ingliz tilida nashr qilinishini inobatga olgan holda, maktablarda ingliz tilini o‘rgatuvchi turli xorijiy dasturlarni tadbiq etish masalasini ko‘rib chiqish;

4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim–tarbiya berishga mas’ul mutaxassislarning malaka talablarini aniq mezonlar orqali belgilab qo‘yish va bolalarning umumiy ta’limga yo‘naltirilishida butunlay mas’ulligini qonun bilan belgilab qo‘yish;

5. Maktabgacha ta’lim hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi guruh va sinflarda xalqaro tajribada sinalgan usullardan kelib chiqqan holda o‘quvchilar sonining maksimal hamda minimal ko‘rsatkichlarini belgilab qo‘yish;

6. Psixologik testlar yordamida boshlang‘ich sinflardagi iste’dodli bolalarni ajratib olib 8-9 yoshlilar uchun har bir maktabda ixtisoslashgan sinflar tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli qarorida eng ustivor vazifa qilib olindi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari Respublikamiz ta’lim tizimini mazmunan yangilash, innovatsion ta’lim muhitini yaratish, ta’lim sifatini orttirishni talab etadi va quyidagi vazifalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi: - Xalqaro baholash dasturlari

PIRLS TIMSS va PISA talablari asosida o‘qish, o‘zbek tili va adabiyoti, matematika va tabiiy o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv va nostandart adaptiv topshiriqlarini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil ish daftarlarini bosma shaklda va modulli o‘qitish tizimiga asoslangan elektron variantini tayyorlash axborot texnologiyalari vositasida baholash mexanizmini ishlab chiqish; - Xalqaro baholash tizimi TALIS (Teaching and Learning International Survey) talablari asosida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini aniqlash uchun kvalimetrik diagnostika anketa so‘rovnomasini tayyorlash va on-lain tizimi vositasida aniqlash; - Pedagog kadrlar tomonidan o‘zining kasbiy kompetentligini mustaqil nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradigan kvalimetrik diagnostika topshiriqlaridan iborat metodik va elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish zarur. Xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarimizda XXI asr ko’nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. K Shakhnoza, K Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
2. Ш.Х. Кулиева, Х.Ю Хамроева, ЗД Расулова Учебный процесс как педагогическая система в процессе подготовки учителей профессионального обучения. Молодой ученый, 383-385.
3. Ш.Х. Кулиева Методологические основы системного подхода при подготовке учителей. The Way of Science 5, 39.
4. Ш.Х Кулиева, МН Каримова, МХ Давлаткулова Организatsiя теоретических и практических занятий в процессе подготовки учителей профессионального образования на основе системного подхода. Молодой ученый, 804-807.
5. Ш.Х. Кулиева Подготовка учителей профессионального образования на основе системного подхода Наука и мир 2 (5), 70-72.
6. Ш.Х. Кулиева Содержание эффективности и качества подготовки будущих учителей трудового образования Наука без границ, 67-69.
7. Ш.Х. Кулиева, М..Н Каримова Использование современных дидактических средств в обучении специальных предметов Педагогические науки, 84-88.

ZOOLOGIYA FANIDAN INNOVATSION ELEKTRON DARSLIKLAR YARATISH VA JORIY ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Asallayev O‘.X.
Termiz davlat universiteti tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: ta’lim tizimi, innovatsion elektron darsliklar, didaktika tamoyillari, kompyuter texnologiyalari, elektron o‘quv materiallari, o‘qitish samaradorligi, informatsion-pedagogik texnologiyalar, zoologiya ta’limi, talabalarning intellektual imkoniyatlari.

Ключевые слова: система образования, инновационные электронные учебники, принципы дидактики, компьютерные технологии, электронные учебные материалы, эффективность обучения, информационно-педагогические технологии, зоологическое образование, интеллектуальные возможности учащихся.

Key words: educational system, innovative electronic textbooks, principles of didactics, computer technologies, electronic educational materials, teaching effectiveness, information and pedagogical technologies, zoology education, intellectual capabilities of students.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, intelektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalalari yoritilgan bo‘lib, ta’lim jarayonlarida zamonaviy elektron ta’lim resurslarini joriy etish bo‘yicha fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, elektron darsliklarning yangi avlodini yaratish, zoologiya fanidan innovatsion elektron darsliklarni ishlab chiqish, ulardan samarali foydalanish hamda innovatsion elektron darsliklarning an’anaviy darsliklardan afzallik tomonlari yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены вопросы модернизации системы образования в нашей республике, воспитания личностей, обладающих интеллектуальным потенциалом, способных вести самостоятельное мышление и наблюдение на основе современных достижений науки, подготовки конкурентоспособных, высококвалифицированных кадров. по внедрению